



XALQARO TABIIY VA SUN'IY TILLAR: INTERLINGVISTIKA NUQTAYI  
NAZARIDAN

**Araqulova Fotima G'ofurjon qizi**

*Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** *Ushbu ilmiy maqolada tilshunoslikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan interlingvistika va uning asosiy tadqiqot obyekti — xalqaro tillar masalasi yoritiladi. Xususan, xalqaro tabiiy va xalqaro sun'iy tillarning vujudga kelishi, ijtimoiy vazifalari, funksional xususiyatlari hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tarixiy misollar asosida vositachi tillarning shakllanish jarayoni va ularning hozirgi davrdagi ahamiyati ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *interlingvistika, sotsiolingvistika, xalqaro til, vositachi til, xalqaro tabiiy tillar, xalqaro sun'iy tillar, esperanto.*

**Abstract.** *This scientific article examines interlinguistics as one of the important branches of linguistics and its main object of study — the issue of international languages. In particular, the emergence of international natural and international artificial languages, their social functions, functional characteristics, and their role in the development of society are scientifically analyzed. Based on historical examples, the process of the formation of intermediary languages and their significance in the modern era is revealed.*

**Аннотация.** *В данной научной статье рассматривается интерлингвистика как одно из важных направлений языкознания и её основной объект исследования — проблема международных языков. В частности, анализируются возникновение международных естественных и международных искусственных языков, их социальные функции, функциональные особенности и роль в развитии общества с научной точки зрения. На основе исторических примеров раскрывается процесс формирования языков-посредников и их значение в современный период.*

Zamonaviy tilshunoslikda tillarni faqat grammatik va leksik jihatdan emas, balki ularning ijtimoiy vazifalari asosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, sotsiolingvistikaning mustaqil yo'nalishlaridan biri bo'lgan interlingvistika xalqaro tillar masalasini tadqiq etadi. Xalqaro tillar turli millat va xalqlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalarni ta'minlovchi muhim kommunikativ vosita hisoblanadi.

Interlingvistika tushunchasi va tadqiqot doirasi

Interlingvistika tilshunoslikning alohida mustaqil tarmog'i bo'lib, xalqaro tillarning yaratilishi, rivojlanishi va amal qilish qonuniyatlarini o'rganadi. Ushbu atama XVII asrda R. Dekart tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, keyinchalik G. V. Leybnits tomonidan ilmiy jihatdan rivojlantirilgan. Interlingvistika, asosan, xalqaro tabiiy va xalqaro sun'iy tillarni o'rganishga yo'naltirilgan.

Xalqaro tabiiy tillar



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Xalqaro tabiiy tillarni "vositachi til" deb ham ataladi. "Vositachi til" atamasi bu o'rinda "til kontaktlari"ga aloqador "vositachi til"dan farq qiladi. "Vositachi til" bu o'rinda bir necha mamlakatlarda ularning xalqlari tomonidan bir xil maqsad va maromda foydalaniladigan til demakdir. Masalan, lotin tili o'rta asrlarda Evropada vositachi til vazifasini bajargan. Maktab va oliy o'quv yurtlari talaba va o'quvchilari lotin tilida ta'lim olishgan. Siyosiy, iqtisodiy va badiiy asarlar shu tilda yozilgan. Lotin tilining vositachi tillik vazifasi XVIII asrgacha davom etgan, bu vazifa keyin fransuz tili zimmasiga o'tgan. Fransuz tilining vositachi tillik vazifasi XX asrning birinchi choragi oxirlarida barham topgan. Chunki bu davrga kelib, xalqaro vositachi tillik vazifasi ingliz tili zimmasiga o'tgan. Xalqaro tabiiy tillar muayyan xalq yoki millat tilining funksional jihatdan kengayishi natijasida xalqaro miqyosda qo'llaniladigan tilga aylanishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, musulmon mamlakatlarida klassik arab tili, Uzoq Sharq mamlakatlarida esa eski xitoy adabiy tili uzoq vaqt davomida xalqaro vositachi til sifatida xizmat qilgan. Hozirgi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ingliz, fransuz, ispan, rus, xitoy va arab tillari xalqaro tabiiy tillar sifatida e'tirof etilgan. Xalqaro tabiiy tillarning muhim xususiyati ularning polifunksionalligidir, ya'ni ular bir vaqtning o'zida milliy til, davlat tili, zonal til va millatlararo til vazifalarini bajaradi. Xalqaro tabiiy tillar muayyan xalq, millat tilining funksional mavqei, ya'ni vazifasi bilan belgilanadi. Dunyoning vazifa jihatidan millatlararo va zonal tillardan ham yuqori imtiyozli tili xalqaro tabiiy til hisoblanadi. Dunyoning barcha millat va xalqlariga baravar aloqador bo'lgan yig'in va anjuman materiallari ana shu xalqaro tabiiy tillarda rasmiylashtiriladi. Xalqaro tabiiy tillar Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) rasmiy tilidir. Dunyoning olti tili xalqaro til sifatida tan olingan. Ularga ingliz, fransuz, ispan, rus, xitoy va arab tillari kiradi. Bular ingliz, fransuz, ispan, rus, xitoy va arab etnik jamoalarining milliy tilidir.

### Xalqaro sun'iy tillar

Xalqaro sun'iy tillar biror-bir xalq yoki millatga mansub bo'lmagan, balki maxsus maqsadda ayrim shaxslar tomonidan yaratilgan tillardir. Birinchi xalqaro sun'iy til 1879-yili Germaniyada "volapyuk" nomi bilan vujudga keldi. Uning ixtirochisi nemis olimi I.M.Shleyerdir. So'ngra 1876-yili Polshada "esperanto" ixtiro qilindi. "Esperanto" polyak vrachi L.L. Zamengof tomonidan yaratilgan. Bu til xalqaro sun'iy tillarning eng faol va eng keng tarqalgan turidir. U dastlab Rossiya va Polshada, keyinchalik Angliya, Fransiya va boshqa mamlakatlarga tarqalgan. Bu tilning yozuvi "bir tovushga bir harf" printsiplida tuzilgan. Esperanto tilida dunyoning boy original va tarjima asarlari yaratilgan. Bu sun'iy tilda qirqaqa yaqin matbuot muassasalari nashr ishlari bilan shug'ullanadi. Ayrim mamlakatlarda esperanto tilida radioeshittirishlar ham olib boriladi. Esperanto, bundan tashqari, fransuz tili kabi, xalqaro pochta assotsiatsiyasining rasmiy tili vazifasini ham bajaradi. Hozirgi vaqtda esperantodan dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida foydalaniladi. Ular tabiiy tillar asosida tuziladi, biroq jamiyat tomonidan tabiiy ravishda shakllanmaydi. Xalqaro sun'iy tillarni o'rganish ham interlingvistikaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Jumladan, 1992-yilda B. Karimov va Sh. Mutalovlar tomonidan





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



taklif etilgan “O‘rtaturk tili” loyihasi turkiy xalqlar o‘rtasidagi lingvistik yaqinlashuvni ta’minlashga qaratilgan edi. Esperanto xarakteridagi xalqaro sun’iy til 1992-yili Toshkentda ham paydo bo‘ldi. U o‘zbek faylasuf olimlari B.Karimov va Sh.Mutalovlar tomonidan "O‘rtaturk tili" nomi bilan ixtiro qilingan va uning lisoniy qurilishi ishlab chiqildi Xalqaro tabiiy va sun’iy tillar jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, tabiiy va sun’iy tillar bir-birini inkor etmaydi, balki o‘zaro uyg‘un holda insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Tabiiy tillar insoniylik va madaniyatni ifodalasa, sun’iy tillar ilmiy-texnik rivojlanishni ta’minlaydi. Xalqaro tabiiy tillar tarixiy va ijtimoiy jarayonlar natijasida shakllanib, keng kommunikativ vazifalarni bajaradi. Xalqaro sun’iy tillar esa insoniyatning umumiy muloqot ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ongli loyihalardir. Interlingvistika ushbu tillarni ilmiy asosda o‘rganish orqali tillararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tabiiy tillar va sun’iy tillar inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Tabiiy tillar asrlar davomida xalq tomonidan shakllanib, milliy madaniyat, tarix va tafakkurni o‘zida mujassam etadi. Ular muloqotning asosiy vositasi bo‘lib, insonlar o‘rtasida ijtimoiy, madaniy va ma’naviy aloqalarni ta’minlaydi. Sun’iy tillar esa muayyan maqsad asosida, aniq qoidalar va tizimlarga tayangan holda yaratiladi. Bunday tillar fan, texnika, mantiq, dasturlash va xalqaro muloqot sohalarida keng qo‘llaniladi. Sun’iy tillarning afzalligi aniqlik, ixchamlik va mantiqiylikda namoyon bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sossyur, F. de. Umumiy tilshunoslik kursi. – Toshkent: Fan, 2008.
2. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2010.
3. Yusupov, O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
4. Usmonova Sh. Sotsiolingvistika.-Toshkent: Universitet, 2014.
5. Internet ma’lumotlari.

